

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2023
MAXSUS SON

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

D.A.Ganiyeva	
O'zbek va ingliz tillaridagi kelasi zamon shakllarining polifunksionalligi	6
G.S.Mirzayeva	
Lingvokulturmalar adabiy matnni ochib beruvchi kalit sifatida	10
S.N.Fazildinova	
The use of hyperbole in Alisher Navoi's works	14
Sh.T.Axmadjonova	
O'zbek tilshunosligida nutq uslublarining o'rganilish talqini	17
D.S.Usmonova	
Exploring values through phraseological units: a study of axiology in language	20
D.S.Usmonova, K.U.Davlyatova	
Gender features of children's animation and emerging translation challenges	24
N.R.Maxmudova	
O'zbek va jahon tilshunosligida ornitonimlarning o'rganilishi xususida	28
M.Saminjonov	
Rasmiy-jamoaviy qasamlar	31
I.M.Jo'rayev	
Qadimiy qadriyatlar	37
D.R.Ubaydullayeva	
Ingliz va o'zbek tillarida shart komponentli gipotaksemlarning struktural-semantik jihatlari qiyosiy tadqiqi	41
N.Q.Adamboeva	
Ingliz tili badiiy asarlaridagi xushmuomalalik kategoriyasining maksimalari	49
Z.M.Dadahonova	
Components of knowledge control	53
L.Teshebayeva	
O'zbek va ingliz ertaklarida mifonim va spellonimlar	56
Ш.М.Артикова	
Интегральные и дифференциальные признаки тавтологии и плеоназма	60
M.M.Nurmatova	
Paralingvistika jonli muloqot tarjimoni sifatida	66
S.I.Quziyev	
Oliy ta'lim muassasalarida kasbga yo'naltirilgan chet tilini o'qitishning xususiyatlari	70
T.Z.Ismonova	
Problems and solutions of grammar translation method	76
N.A.Komilova	
Zamonaviy tilshunoslikda gender nazariyasi asoslari	80
D.X.Madazizova	
The significance of text and discourse in enhancing communicative competence	83
S.A.Yusupova	
Morphemic units expressing honour in different system languages	86
N.Sidikova	
Stevan Sveygning "Noma'lum ayol maktubi" hikoyasida ayol ruhiyati tasviri	91
Sh.X.Nuritdinova	
Nemis va o'zbek tillarida kelishik kategoriyasi tipologiyasi	94
N.K.Abbasova, N.A.Abdullaeva	
Semantic analysis of english phrasal verbs	98
B.A.Mukhtorova	
The "Concept" in linguistics	102
R.A.Ortiqov	
Ulug'bek hamdamning "Ota" asaridagi monologlar tahlili	106
Sh.O.Abdiloyev	
Zoonim frazeologizmlar xalq tarixi va madaniyati in'ikosi	110

LINGVOKULTUREMALAR ADABIY MATNNI OCHIB BERUVCHI KALIT SIFATIDA
ЛИНГВОКУЛЬТУРЕМА КАК КЛЮЧ К ОТКРЫТИЮ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА
LINGUOCULTUREMAS AS A KEY TO OPENING THE LITERARY TEXT

Mirzayeva Gulbaxor Soxibovna¹

¹Fargʻona davlat uneversiteti, Ingliz tili kafedrası oʻqituvchisi

Annotatsiya

Zamonaviy jahon tilshunosligining lingvokulturologiya, etnokulturologiya, lingvopragmatika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, sotsiolingvistika singari sohaları antroposentrik paradigma tamoyillariga asoslangan boʻlib, unga koʻra inson omili asosiy mezon hisoblanadi. Til va jamiyat munosabatlari, shuningdek, unda aks etadigan milliy-madaniy birliklarning keng koʻlami lingvokulturemalar, ularning shakllanish jarayonlari va qoʻllanilish sohaları, til sathida namoyon boʻlishi, nutqda va yozuvda voqelanishi kabi masalalar ancha keng oʻrganilgan. Tadqiqotning maqsadi ingliz badiiy asarlaridagi lingvokulturemalarining milliy-madaniy, leksik-semantik, stilistik xususiyatlarini aniqlash, ularning oʻzbek tiliga tarjimada berilish masalalarini yoritishdan iborat.

Аннотация

Такие области современного мирового языкознания, как лингвокультурология, этнокультурология, лингвопрагматика, когнитивная лингвистика, психолингвистика, социолингвистика, базируются на принципах антропоцентрической парадигмы, согласно которой главным критерием является человеческий фактор. Такие вопросы, как взаимосвязь языка и общества, а также широкий спектр отраженных в нем национально-культурных единиц, лингвокультуры, процессы их формирования и сферы применения, их проявление на уровне языка, проявление в устной и письменной речи. Цель исследования — определить национально-культурные, лексико-семантические, стилистические особенности лингвокультур в английских художественных произведениях, а также осветить вопросы их перевода на узбекский язык.

Abstract

Such areas of modern world linguistics as linguoculturology, ethnoculturology, linguopragmatics, cognitive linguistics, psycholinguistics, sociolinguistics are based on the principles of the anthropocentric paradigm, according to which the main criterion is the human factor. Issues such as the relationship between language and society, as well as a wide range of national cultural units reflected in it, linguistic cultures, the processes of their formation and scope of application, their manifestation at the language level, manifestation in oral and written speech. The purpose of the study is to determine the national-cultural, lexical-semantic, stylistic features of linguistic cultures in English works of art, as well as to highlight issues of their translation into the Uzbek language.

Kalit soʻzlar: *lingvokulturologiya, lingvokulturema, madaniy birlik, badiiy matn, tarjima, milliy-madaniy xususiyatlar.*

Ключевые слова: *лингвокультурология, лингвокультурема, культурное единство, художественный текст, перевод, национально-культурные особенности.*

Key words: *linguoculturology, linguocultureme, cultural unity, literary text, translation, national and cultural characteristics.*

KIRISH

Adabiyot asrlar davomida jamiyatdagi barcha xususiyatlarni ochib beruvchi eng asosiy manba hisoblanadi. Jahon adabiyotini oʻrganish mamlakatlar aro madaniyat almashunuvida eng muhim vazifani oʻtaydi. Davrlar aro sayoyohatlarga hamda oʻsha jamiyatdagi voqea va hodisalarni haqiqiy atmosferani his qilish uchun ham oʻsha davr adabiyotlariga yuzlanamiz. Jahon adabiyotida oʻz oʻrniga ega boʻlgan ingliz adabiyotiga ulkan hissa qoʻshgan ayol yozuvchisi Jeyn Oustindir. Lingvokulturologik jihatdan Jeyn Oustinning “Gʻurur va andisha” asarida biz tahlil qilgan lingvokulturemalar asarning milliy-madaniy xususiyatlarini yanada ochib berganligini hamda oʻsha davrning oʻziga xos xususiyatlarini ochib berganligini koʻrishimiz mumkin. Haqiqatdan ham, madaniy xususiyatlarni tahlil qilish hamda oʻrganish uchun matn eng zaruriy manba vazifasini oʻtaydi. Bundan maʼlum boʻladiku, qadimdan mavjud boʻlgan matnlarga nisbatan oddiy bir informatsiya emas, madaniy merosni hamda barcha informatsiyalar yigʻindisi yaʼni maʼlumotlar ombori sifatida yondashilgan va ular tahlil qilingan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi kunda tadqiqotchilar lingvistika, grammatika, semantika, kognitologiya, psixolingvistika, madaniy tilshunoslik, lingvokulturologiya kabi qator yoʻnalishlar yutuqlariga tayangan holda matn tahlili ustida ish olib bormoqdalar. Bundan maqsad

nutq yaratuvchi va uni idrok etuvchi shaxsning til faoliyatidagi rolini aniqlash, ikkinchi tomondan, matnning semantik va lingvistik-madaniy xususiyatlarini chuqur o'rganishdir. Shu munosabat bilan tilshunoslik fanida umumiy e'tiborni tortayotgan til va madaniyat tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan lingvokulturologiya masalalari ko'plab tilshunos olimlar tomonidan o'rganilmoqda, ammo hali hanuz to'liq yechimi topilmagan muhokamalar maydoniga aylandi.

Hozirgi kunda deyarli har bir ilmiy ishlarda madaniyat va tilni birgalikda o'rganish an'anaga aylanib bormoqda, ya'ni milliy, madaniy xususiyatlarini ochib berish uchun o'sha tilning badiiy matn fondi hamisha jamiyat madaniyatini ochib beruvchi eng asosiy "ko'zgu" sifatida qaraladi. Shunga ko'ra, til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlar, madaniyatni tilda aks ettirish muammosi bilan bog'liq masalalarning uslubiy asosi keyingi yillardagi ilmiy va amaliy faoliyatdan boshlandi. Shuningdek, til va madaniyat masalalarini *lingvokulturologiya* fani atroflicha o'rganishga kirishdi va bir qator ilmiy ishlar yozila boshladi. Shu bilan birga, ushbu soha o'zbek tilshunosligida o'z o'rnini topmoqda va unga oid bir qator masalalarga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda.

Ma'lumki, lingvokulturologiya — zamonaviy an'analar va madaniy qadriyatlar (me'yorlar va umuminsoniy qadriyatlar tizimi) lingvistik va madaniy mazmunning yaxlit shaklda tizimli til va madaniyat o'rtasidagi munosabat umumlashtiruvchi ilmiy tadqiqot. Bundan ma'lum bo'ladiki, lingvokulturologiya lingvistika va madaniyatshunoslikning vaqtinchalik ittifoqi emas, aksincha o'zining mustaqil maqsadlari, vazifalari, tadqiqot usuli va obyektlari ega bo'lgan integrativ sohadir.

Bu yo'nalishda o'zbek tilshunosligida ham bir qancha ilmiy izlanishlar, o'rganishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, o'zbek tilida dastlabki ish sifatida tilning lingvokulturologik ilmiy asoslari, til va madaniyatning uzviy aloqadorligiga oid bir qator masalalar yoritilganligi sifatida Professor N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab" maqolasini olishimiz mumkin. Bu maqolada antropotsentrik paradigmaning mohiyati va u bilan bog'liq muammolar batafsil va asosli yoritilgan. Ushbu maqolani o'zbek tilshunosligida lingvokulturologiya masalalari yuzasidan dastlabki jiddiy mulohazalarni o'z ichiga olgan birinchi asar desak mubolag'a bo'lmaydi. Lingvokulturologik nazariyaning asosini shakllanishi uchun muhim tushunchalar va omillar maqolada asosli bayon etilgan. N.Mahmudovning izohlashiga ko'ra "Til va madaniyat deganda, odatda, til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o'rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma'nosi "aqliy-ma'naviy yoki xo'jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (nutq madaniyati)" emas, balki "kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmui (madaniyat tarixi, o'zbek madaniyati)" demakdir.[4.7] Shunday bo'lgach, nutq madaniyatining o'rganish muammolari boshqa, lingvokulturologiyaning o'rganish obyekti tamoman boshqadir" Bundan ko'rinadiki, lingvokulturologiyaning o'rganish obyekti til va madaniyatning uyg'unlashuvi asosida yuzaga kelgan madaniy birliklarning tilda namoyon bo'lishi ekan. Madaniy birliklarning o'rganish jarayonida albatta so'zning semantik jihatdan e'tibor qaratilishi har bir so'zga alohida yondashuv talab etilishini ifodalaydi. Bunga ko'ra tilshunos olim Shaxriyor Safarov o'zining "Semantika" monografiyasida bunga alohida e'tibor bilan yondashib, quyidagicha izohlaydi "So'zlarning qadimiy yoki ilk ma'nolari, lug'atlarda "tarixiy, arxaik" ishorasi bilan berilishiga qaramasdan, konseptlarning mazmun maydoni shakllanishida muhim o'rinni egallab keladi. Ular konsept mundarajasiga milliylik xususiyati, belgisini beradilar hamda ma'lum muhitda semantik strukturaning yetakchi qismiga aylanadilar".[6.14] So'zning ma'nosi davrlar o'tgan sari o'zgarishga duch kelishi har bir tilning dinamikada ekanligini ifodalaydi hamda ularning mohiyatini o'rganish ham leksik ham lingvokulturologik jihatdan ham muhimdir.

NATIJAR VA MUHOKAMA

Asarning asl matnidagi til madaniy birliklari, ya'ni lingvokulturemalar etnik va ijtimoiy-madaniy o'ziga xoslikni ifodalaydi. Asarning asl nusxaning ekvivalentini yaratish tillararo va madaniyatlararo muloqot doirasida adaptiv transkodlashning har xil turlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Milliy madaniy ma'nolarni ifodalovchi inglizcha so'zlar va iboralar asarning madaniy asosini tashkil qiladi va ko'pincha ikkinchi tilda ekvivalent va tarjimaga ega emas. Asl hamda tarjima matnlarini qiyosiy tahlil qilishda lingvokulturema guruhlarining etnomadaniy jihatdan oila a'zolarining nomlari va ularga murojaat qilish turlari, mifologik va diniy nomlar, kundalik buyumlar hamda idishlarning nomlari, yashash sharoitining ichki qismidagi elementlarning belgilari, uy, mebel va kiyim-kechak kabilarni ko'rishimiz mumkin. Asarda lingvokulturemalar yordamida tarixiy atmosferani yaxshi his qilamiz. 1797-1813 yillardagi Angliya davri, patriarxal oila ichidagi munosabatlar, mahalliy etnik-madaniy hamjamiyatning an'anaviy qadriyatlari va ijtimoiy-siyosiy

voqeliklar tasvirlangan. Ingliz tilidan tarjima qilish jarayonida asarning kontseptual, semantik va majoziy qatlamlarining murakkab iyerarxiyasi vujudga keladi. Hikoyaning tashqi darajasi (syujet) va ko'plab voqealar ikkinchi tilga sezilarli semantik yo'qotishlarsiz uzatiladi. Shaxsiyat arxetiplar (or va nomus o'rtasidagi kurash, xurmatga loyiq bo'lish, sevgi izlash va qozonish, ota-ona va qiz farzandlar munosabatlari, mo'jizaviy najot) nutqi va ijtimoiy-madaniy tajribasidan qat'iy nazar, ingliz tilida so'zlashuvchi o'quvchilarning qalbida javob uyg'otadi. Ijtimoiy munosabatlar va o'zaro ta'sirlarning lingvomadaniy xususiyatlari, etnik-madaniy va o'rta qatlam turmush tarzining o'ziga xos xususiyatlari, etno-psixologik munosabatlar chet tilidagi o'quvchi uchun "shifrlangan" va to'liq semantik hajmda faqat ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy aloqalarni tashuvchilar uchun mavjud. Yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilinganda, milliy madaniy muhit va etnik-madaniy qadriyatlar yo'qolib qolmaydi, balki ikkinchi darajali bo'lib qoladi va shu bilan birga, qahramonning dunyoqarashidagi "yaqinlik" va o'ziga xoslik ham tekislanadi. Natijada, tarjima qilingan matn boshqa til madaniyatiga va boshqa auditoriyaga qaratilgan mustaqil asarga aylanadi. Mumtoz adabiyot turkumiga kiruvchi Jeyn Ostin tomonidan yozilgan "Andisha va g'urur" asarining ham o'zbek o'quvchilariga kirib kelishiga sababchi bo'lgan tarjimon Muhabbat Ismoilova bo'lib, bu asarning ingliz tilidan to'g'ridan to'g'ri tarjimasini bo'lmay, rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilinishi badiiy matnda ingliz madaniy olamini yaratish uchun ko'plab rus tilidagi so'zlardan foydalanilganligini guvohi bo'lamiz. Quyidagi misollarga qaraydigan bo'lsak:

1. "Her father had been *attorney* in Meryton, and had left her four thousand pounds." [2.46] *Attorney* lingvokulturemasi o'n sakkizinchi asrda huquqiy ishlar bilan shug'ullangan vakilga nisbatan ishlatilib, hozirgi kunda bu so'zning *lawyer* ya'ni yurist shakli mavjud. Tarjimaga keladigan bo'lsak: "Otasi hayotligida Meritonda *chinovnik* xizmatida bo'lib, qiziga to'rt ming funt meros qoldirgan edi." Tarjima jarayonida asarni o'zbek tilida o'quvchi uchun yana bir lingvokulturologik birlik "*chinovnik*" so'zi bilan kelayotganligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, Sh.Usmanova o'zining "Lingvokulturologiya" darsligida muqobilsiz leksika sifatida *attorney* so'zini quyidagicha ifoda etadi: "Ingliz tilida "yurist, advokat" ma'nosini anglatgan *lawyer* so'zidan boshqa advokatlik kasbining turli tumanligini ifodalaydigan *attorney*-huquqiy vakil, *barrister* – oliy sudlarda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan advokat, *solicitor*-mijozlarga va tashkilotlarga maslahat beruvchi quyi sudlarda ishtirok etish huquqiga ega, *counsel*-yuristkonsult, *counsellor*-maslahatchi, *advocate*-oliy darajadagi advokat. O'zbek va rus tillarida qayd qilingan ifodalarga faqat birgina advokat so'ziga muqobil bo'la oladi." [5.6] Bundan kelib chiqadiki, tarjimon badiiy matnda huquqiy vakil so'zidan ko'ra davlat xodimi sifatida *chinovnik* lingvokulturemasi orqali saqlab qolishga erishgan.

2. "At present, indeed, they were well supplied both with news and happiness by the recent arrival of a *militia regiment* in the neighborhood; it was to remain the whole winter, and Meryton was the *headquarters*" [2.17] M. Ismoilova tarjimada quyidagicha ifoda etadi "Ayni paytda esa Meriton atrofida qishni o'tkazish uchun *militsiya polki* joylashtirilgan va qizlar uchun endi yangiliklar serob edi" Bu yerda *militsiya polki* rus lingvokulturemasi orqali o'z ifodasini topgan bo'lsa, asl matndagi *headquarters* so'zining tarjimada hech qanday izohini uchratmaymiz. *Headquarters* so'zi Oxford Dictionary lug'atida harbiy shtab yoki harbiy qurultoylar markazi sifatida izohlanadi.

3. "Sir William Lucas had been formerly trade in Meryton, where he had made a tolerable fortune and risen to the honor of *knight-hood* by address to the King, during his *mayoralty*." [2.45] Lingvokulturologik jihatdan *knight-hood* so'zi lingvokulturema hisoblanadi va o'sha davrda Angliyada Qirollik uchun xizmat qilgan ritsarlarga va ularning merosxo'rlariga berilgan unvon bo'lib, uning bunday insonlar uchun ma'lum bir imtiyozlar berilganligini ko'rishimiz mumkin. Tarjimaga qaraydigan bo'lsak: "Ser Uilyam Lukas birmuncha vaqt mobaynida Meritonda savdo-sotiq bilan shug'ullangan va o'sha yerda anchagina boylik ham orttirib, *baronet* *tituliga* ega bo'lgandi" Tarjima jarayonida ham hech qanday ekvivalentga ega bo'lmagan hamda ingliz madaniyatidagi ijtimoiy-siyosiy xususiyatni saqlab qolgan lingvokulturema bilan ifodalanayotganligini ko'rishimiz mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, so'z shaklidagi lingvokulturemalarning asosiy qismini atmalar, predmet nomlari, shuningdek shaxs nomlari tashkil etadi. Badiiy matnda qo'llanilgan lingvokulturemalarda esa asosan voqea va hodisalar tasviri kontekstda milliy-madaniy lingvokulturema sifatida namoyon bo'lgan. Shuningdek, lingvokulturemalarning milliy-madaniy xususiyatlarini yoritishda va tarjima qilishda lingvistik va ekstralingvistik omillarni hisobga olish zarur. Lingvokulturemalarda ma'noning ifodalanishi va kuchaytirilishi milliy-madaniy

xususiyatlarning qiyoslanishi bilan uzviy bog'liq tarzda kechadi. Har bir ifodalanayotgan lingvokulturema tarjima matnlarida pragmatik muvofiqlikni saqlashi va ularning o'zga xalqlar uchun tushunarli bo'lishi, ya'ni pragmatik xususiyatlarni aks ettirishi tarjima qoidasi darajasidagi shartlardan ekanligi e'tirof etilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jeyn Ostin "Andisha va g'urur". Toshkent. 2019. Yangi asr avlodi, 404bet.
2. Jane Austen. "Pride and Prejudice". Paradigm Publishing, 1998. 362pages. (page 26)
3. Oxford Dictionary. Tashkent. 2005. 734 pages. (272 page)
4. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab. O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. — № 5.
5. Shoira Usmanova. "Lingvokulturologiya". Toshkent. 2019. 28 bet. (248 bet)
6. Сафаров. Ш. Семантика. Монография. Тошкент. 2013. Б. 167. (347)
7. Mirzayeva, G. S. (2023). Linguoculturemes As A Key That Reveals The Literary Text. According To Jane Austen's Novel "Pride And Prejudice". *International Journal of Formal Education*, 2(11), 6-10.
8. Mirzayeva, G. S. (2023). Cultural-Bounding Words In Translation. *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education* (2994-9521), 1(5), 29-31.